HABIB SIDDIQ HIKOYALARIDA ODDIY FOLKLORIZMLAR IFODASI

Baxriddinova Muazzamxon fazlitdin qizi
Andijon davlat universiteti o‘zbek adabiyoti
ixtisosligi tayanch doktoranti

Annotatsiya
Ushbu maqolada yozuvchi Habib Siddiqning “O‘n uchinchi jabha” hikoyasi haqida so‘z yuritiladi. Hikoyada qo‘llangan asl oddiy va qayta ishlangan oddiy folklorizmlar tahlil qilinadi. Hikoya matnidagi maqol va iboralarning vazifasi haqida baxs yuritiladi.
Kalit so‘zlar: *xalq og‘zaki ijodi, folklorizm, oddiy folklorizm, qayta ishlangan oddiy folklorizm, maqol, ibora.*

KIRISH

O‘zbek xalqi azal-azaldan so‘zga usta, nutqi chiroyli, maqol-u iboralar, matallarga boy xalq. Biror o‘zbek yo‘qki, nutqida ibora ishlatmasa yoki maqol qo‘shib gapirmasa. Har doim vaziyatga mos maqol yoki matal, ibora nutqimizda “tayyor turadi”. Maqol, matal, topishmoqlar xalq og‘zaki ijodida alohida maxsus tur sifatida o‘rganiladi. Xalqimiz lug‘atida shunday ma’noli maqollar borki, ularni eshitganingizda beixtiyor vaziyat to‘g‘risida tasavvur hosil bo‘ladi.

Yozma adabiyot vakillari ham o‘z asarlarida maxsus tur janrlaridan juda ko‘p foydalanadilar. She’rlar yoki nasriy asarlarda maqollar va iboralar o‘zgacha ma’no kasb etadi, muallif aytmoqchi bo‘layotgan fikrlarni yanada oydinlashtiradi.

Yozma adabiyotga maqol, matal, iboralarning ko‘chishi “oddiy folklorizmlar” deb ataladi. Oddiy folklorizmlar she’riyat poetikasidagina emas, nasriy asarlar poetikasida ham muhim rol o‘ynaydi. Oddiy folklorizm Habib Siddiq hikoyalari badiiyatini ta’minlashda ham katta ahamiyatga ega. O‘zbek nasri ustalari A.Qodiriy, Cho‘lpon, A.Qahhor, G‘.G‘ulom, Oybek, A.Muxtor, S.Ahmad, Sh. Xolmirzayev kabi ko‘plab ijodkorlar singari Habib Siddiq ham o‘z hikoyalarida xalq maqollari, matallari, topishmoqlar, xalqona obrazli, iboralardan nihoyatda mahorat bilan foydalanadi. Oddiy folklorizmning nazariy tabiatini o‘rgangan B.Sarimsoqov, I.Yormatovlar oddiy folklorizmni ikkiga bo‘lishdi. Bular asl oddiy folklorizmlar va qayta ishlangan oddiy folklorizmlar. Oddiy folklorizmlarni bu tipda tasniflab, nomlanishidayoq, uning nazariy tabiati oydinlashib turibdi. Ya’ni xalq maqol va matal, obrazli xalqona badiiy ifodalar (idioma va boshqalar)ning aynan o‘zidek ishlatilishi asl oddiy folklorizmlar bo‘lsa, ularning ijodkor tomonidan qaytadan o‘zgartirishlarga uchrab,yangilanishi “qayta ishlangan oddiy folklorizmlar”ni tashkil etadi. [1,B 45] Yozuvchi Habib Siddiq hikoyalarida asl folklorizmlar ham, qayta ishlangan folklorizmlar ham ko‘p uchraydi. Oddiy folklorizmning har ikki turiga adibning asarlaridan ko‘plab misollar keltirish mumkin. Oddiy folklorizmlar nasriy asar badiiyatini yuksaltirishda, uni yetuk badiiy asar

sifatida shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Habib Siddiq asarlarida ham oddiy folklorizimning asl oddiy foklorizm ko‘rinishi juda ko‘p uchraydi. Adibning qissalari, hikoyalari, hajviyalari, hatto publitsistik asarlarida ham maqollar, iboralar, matallar ko‘zga tashlanadi. Yozuvchi maqollarni asarlari qatiga shunchalik singdirib yuboradiki, kitobxon maqolni asar bilan birga tasavvur qiladi, uning maqol ekanligi yodidan ham chiqib qoladi. “O‘n uchinchi jabha” hikoyasi ham ana shunday oddiy folklorizmlar bilan boyitilgan hikoyalardan biri hisoblanadi. Hikoyadagi maqollar qahramonlar tilidan keltiriladi va vaziyatlarni oydinlashtirlishga xizmat qiladi. Hikoyada qurilish jabhasidagi qing‘ir ishlar haqida hikoya qilinadi. Boshliq va uning yordamchisining noqonuniy ishlari qiziqarli tarzda bayon qilinadi va bunda maqollar alohida ahamiyat kasb etadi. Boshliqning yordamchisi Akbarali boshliq o‘ziniki bilan birga Akbaralining uchastkasiga ham qurilish ashyolari yetkazib berayotgan vaziyatda “Qo‘ynidan to‘kilsa qo‘njiga” maqolini qo‘llaydi. Bu maqol, odatda, xalqimizda ”mol-mulkning oila ichida qolishi”, ”foydaning begonalarga emas, o‘znikiga tegishi, “baribir o‘zimizniki” degan ma’nolarda ishlatiladi. Ushbu o‘rinda bu maqol oddiy folklorizmni yuzaga keltirgan. Hikoya davomida boshliq va Akbaralining qing‘ir ishlari fosh bo‘lib, jazolarini olishadi, ana shu paytda bu safar boshliq tilidan “boshga tushganini ko‘z ko‘ribdi” maqoli ishlatiladi. Xalqimizda bu maqol odamlar boshidan og‘ir ahvolni kechirganda ishlatiladi va odamzot qiyinchiliklarga ham ko‘nika oladi, qiyinchiliklarni yengib o‘tadi, degan ma’nolarni ifodalaydi. Yuqorida keltirilgan har ikki maqol ham hikoyadagi holatlarni ochib berishda muhim rol o‘ynagan, bundan tashqari hikoya badiiyatini go‘zallashtirishga ham xizmat qilgan.

“O‘n uchinchi jabha” hikoyasida maqollardan tashqari xalq iboralari ham mahorat bilan qo‘llanilgan. Ma’lumki iboralar frazeologik birliklar bo‘lib, yaxlitlangan qotib qolgan birliklar hisoblanadi, va ular nutqda juda faol qo‘llaniladi. Hikoyada ham iboralar qahramonlar nutqini bezovchi vosita bo‘lib xizmat qilgan: “..boshlig‘imizning gap qaytarganlarni yoqtirmasligi esimga tushib darrov hayolimni yiqib oldim” [2, B 21]. “Hayolini yig‘ib olmoq” iborasi Akbaralining nima demoqchi ekanini yaqqol ifodalab bergan.

Keyingi iborani xuddi shu suhbatda boshliq nutqida uchratamiz: “Siz ham bir uchastkaning boshlig‘isiz, ko‘nglimga yaqin olib sizni chaqirtirgandimda” [2, 22] “Ko‘ngliga yaqin olmoq” iborasi nihoyatda yaqin insonlaarga nisbatan qo‘llaniladi. Boshliq bu o‘rinda “ko‘nglimga yaqin oldim” deb Akbaralini ham qing‘ir ishiga sherik qiladi va bu o‘rinda iboraning qo‘llanishi oddiy folklorizm hodisasini yuzaga keltiradi. Hikoya davomida yana bir nechta iboradan foydalanilganki, bu iboralarning asosiy qismi oddiy folklorizmga misol bo‘lsa, ayrimlari qayta ishlangan oddiy folklorizm sifatida baholanadi: “Master yordamchiligidan uchastka boshlig‘iligigacha qulog‘imda cho‘zib olib chiqqan ham o‘zlari. Hozirgacha uning chizgan chizig‘i-yu bosgan izidan yurib kam bo‘lganim yo‘q” [2, B 23]. bu parchaning o‘zida ikkita “qulog‘idan cho‘zib olib chiqmoq” va chizgan chizig‘idan yurmoq” iboaralari biroz o‘zgartirilgan holatda qayta ishlangan oddiy folklorizm hodisasiga misol bo‘la oladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Habib Siddiq hikoyalarida oddiy folklorizmlar asar qahramonlari nutqini bezash, badiiylikni yanada oshirish, muallif aytmoqchi

bo‘lgan fikrlarni kitobxonga yetkazish, asar tilini sodda, ravon, xalq tiliga yaqin qilish uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mamatyusupova S. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida folklorizmlarning o‘rni. Jizzax 2024.
2. Habib Siddiq. Chirog‘i yoniq xonadon. Toshkent.2013
3. Z. Masharipova. O‘zbek yozma adabiyotida folklor an’analari. (o‘quv qo‘llanma). Toshkent.2008
4. Mamasoli Jumaboyev. Bolalar adabiyoti va folklor. Toshkent.2006
5. Sharipova L. XX asrning 70-80-yillari o‘zbek she’riyatida folklorizm. Toshkent: Fan. 2011